

# MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA IJTIMOIIY-SIYOSIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASH TEXNOLOGIYALARINING STRATEGIK YO‘NALISHLARI.

Atamuratov M.U.<sup>1</sup>, Paluaniyazov B.Ye.<sup>2</sup>, Nasirov B.M.<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Qoraqalpoq davlat universiteti

<sup>2</sup>Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

**Annotatsiya:** Markaziy Osiyoda osoyishtalik hamda barqaror taraqqiyotga erishish yo'lida mintaqa davlatlari tomonidan faol tashqi siyosat olib borilmoqda. Markaziy Osiyoni tinchlik hamda yaxshi qo'shnihilik hududiga aylantirish O'zbekiston tashqi siyosatining ham ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan. Mazkur maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, bugungi global tahdid manbalari ko'payib borayotgan davrda, Markaziy Osiyo hududiy xavfsizligini ta'minlash mintaqa davlatlarining oldida turgan eng asosiy vazifalardan biriga aylandi. Davlatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy, transport va tranzit-logistika, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, davlat chegaralariga doir masalalarni yakuniga yetkazish, suv resurslaridan adolatli foydalanish, xalqlar o'rtasida madaniy-gumanitar aloqalar, do'stlik va yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini mustahkamlash kabi yo'nalishlar rivojlantirilmoqda.

**Kalit so'zlar:** Mintaqaviy xavfsizlik, ijtimoiy muvozanat, millatlararo ziddiyatlar, giyohvand moddalar savdosi, diniy ekstremizm, chegara muammosi, suv muammosi. Kalit so'zlar: mintaqaviy xavfsizlik, ijtimoiy muvozanat, millatlararo ziddiyatlar, giyohvand moddalar savdosi, diniy ekstremizm, chegara muammosi, suv muammosi.

**Abstract:** The countries of the region are pursuing an active foreign policy to achieve peace and sustainable development in Central Asia. Making Central Asia a zone of peace and good neighborliness has also been identified as a priority of Uzbekistan's foreign policy. The relevance of this article is that at a time when the sources of global threat are increasing, ensuring regional security in Central Asia has become one of the main tasks facing the countries of the region. Areas of trade and economic, transport and transit-logistics, security and stability, completion of issues related to state borders, equitable use of water resources, strengthening cultural and humanitarian ties, friendship and good neighborly relations between nations are being developed between the two countries.

**Keywords:** Regional security, social balance, interethnic conflicts, drug trafficking, religious extremism, border issue, water issue.

Markaziy Osiyo mintaqasida diniy mutaassib oqimlar faoliyati XX asrning 80-yillari boshlarida xorijiy ekstremistik markazlar sa'y-harakatlari bilan shakllana boshlangan. Mintaqada xorijdan kelayotgan moliyaviy yordam hisobiga jangari sifatida foydalaniladigan shaxslarni tanlash va tayyorlash bilan shug'ullanadigan guruhlar paydo bo'ldi. Markaziy Osiyo respublikalari mustaqillikka erishgan 1990-yillarning boshlarida esa, bu guruhlar faollashib ketgan. Shuning natijasida, mintaqada ekstremizm asosan firqabozlikka asoslangan yangi guruxlarning paydo

bo'lishi, norasmiy yo'l bilan diniy saboq berish, noqonuniy tarzda diniy mahsulotlar tayyorlash, olib kirish, tarqatish, missionerlik va prozelitizmning avj olishi kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligi rivojiga ko'rsatgan salbiy ta'siri Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyati kuzatilgan bir qancha mutaassib harakatlarning maqsadi tahlil qilinganida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Mafkuraviy globallashuv axborot vositalarining rivoji va bu sohada sodir bo'layotgan inqilob bilan bog'liq. Mutaxassislar fikricha, insoniyat bugungi kunda yangi axborot inqilobini boshdan kechirmoqda va u kishilik jamiyati tarixidagi birinchi inqilob emas. Nutqning shakllanishi axborot uzatish imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa, yozuvning paydo bo'lishi uni uzoq vaqt davomida saqlash va axborotni uning yaratuvchisidan ajratgan holda ulkan masofalarga yetkazish, xatto zamonlararo olib o'tishga yul ochdi. Gazeta va jurnallarni nashr etishning yo'lga qo'yilishi yozma axborotni uzatishdagi tezkorlik va qamrovlilikni yanada kengaytirdi. Radio va televidenie esa axborotni ovoz va tasvir orqali uzatishni ta'minlab, uni yangi sifatiy bosqichga ko'tardi.

Markaziy Osiyo mintaqasida diniy mutaassib oqimlar faoliyati XX asrning 80-yillari boshlarida xorijiy ekstremistik markazlar sa'y-harakatlari bilan shakllana boshlangan. Mintaqada xorijdan kelayotgan moliyaviy yordam hisobiga jangari sifatida foydalaniladigan shaxslarni tanlash va tayyorlash bilan shug'ullanadigan guruhlar paydo bo'ldi. Markaziy Osiyo respublikalari mustaqillikka erishgan 1990-yillarning boshlarida esa, bu guruhlar faollashib ketgan. Shuning natijasida, mintaqada ekstremizm asosan firqabozlikka asoslangan yangi guruxlarning paydo bo'lishi, norasmiy yo'l bilan diniy saboq berish, noqonuniy tarzda diniy mahsulotlar tayyorlash, olib kirish, tarqatish, missionerlik va prozelitizmning avj olishi kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligi rivojiga ko'rsatgan salbiy ta'siri Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyati kuzatilgan bir qancha mutaassib harakatlarning maqsadi tahlil qilinganida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Mafkuraviy globallashuv axborot vositalarining rivoji va bu sohada sodir bo'layotgan inqilob bilan bog'liq. Mutaxassislar fikricha, insoniyat bugungi kunda yangi axborot inqilobini boshdan kechirmoqda va u kishilik jamiyati tarixidagi birinchi inqilob emas. Nutqning shakllanishi axborot uzatish imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa, yozuvning paydo bo'lishi uni uzoq vaqt davomida saqlash va axborotni uning yaratuvchisidan ajratgan holda ulkan masofalarga yetkazish, xatto zamonlararo olib o'tishga yul ochdi. Gazeta va jurnallarni nashr etishning yo'lga qo'yilishi yozma axborotni uzatishdagi tezkorlik va qamrovlilikni yanada kengaytirdi. Radio va televidenie esa axborotni ovoz va tasvir orqali uzatishni ta'minlab, uni yangi sifatiy bosqichga ko'tardi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov aytganidek, «Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o'quv dargohlarida, balki radio-televidenie, matbuot, internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday sharoitda bolalarimizningongini faqat o'rab-chirmab, uni o'kima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech

shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi».

Hozirgi axborot inqilobi oldingi davrlarda paydo bo'lgan axborot uzatish usullarining ko'pgina tomonlarini o'zida sintez qilgan, zamonaviy komp'yuter texnologiyalariga asoslangan internet kabi hodisalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov aytganidek, «Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o'quv dargohlarida, balki radio-televidenie, matbuot, internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday sharoitda bolalarimizningongini faqat o'rab-chirmab, uni o'kima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi».

Hozirgi axborot inqilobi oldingi davrlarda paydo bo'lgan axborot uzatish usullarining ko'pgina tomonlarini o'zida sintez qilgan, zamonaviy komp'yuter texnologiyalariga asoslangan internet kabi hodisalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Bugungi kunda turli shakl va mazmundagi axborot inson va jamiyat hayoti, taraqqiyoti va kamolotining zarur shartiga aylangan, elektron ommaviy axborot vositalari, turli tashkilotlarning rasmiy veb-saytlari esa uni tarqatishning muhim manbasiga aylangan . Xususan, har bir insonning murakkab ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarda to'g'ri yo'lni topishi, o'z shaxsiy tajribasi doirasidan chiqib, uning mazmun-mohiyatini his qilishi internet, radio, televideniye, gazeta va jurnallardan muhimroqdir. keng qamrovli jarayonlar.

Internet odamlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarzida, xulq-atvorlariga ta'sir ko'rsatishda katta imkoniyatlarga ega. Internetning bugungi kundagi rivoji g'oyaviy ta'sir o'tkazishning miqyosi va ko'lamining keskin darajada o'sishiga olib keladi. Internet inson ongi va qalbiga ta'sir ko'rsatishning shu darajada kutilmagan qudratli vositasi bulib chiqdiki, unda targ'ib qilinayotgan ma'lumotlarning afzalliklari yoki salbiy oqibatlarini birdaniga ajratib olish juda qiyin masalaga aylanib qoldi.

Internet bugungi axborot makonining muhim bo'g'iniga aylandi. Hozirda internetdan nafaqat komp'yuter tarmog'i, balki kosmik aloqa yo'ldoshlari, radiosignal, kabel televideniesi, telefon, uyali aloqa orqali ham foydalanish mumkin. Avallari fakatgina suzlashuv uchun ishlatilgan telefondan bugun internet, tovushli aloqa va ma'lumotlar uzatish kabi turli qo'shimcha xizmatlardan foydalanish, videotelefoniya va hatto teleko'rsatuvlar ko'rish imkoni bor.

Internetning ta'sir kuchi beriladigan materiallarning tezkorligi, ko'tarilayotgan masalalarning dolzarbligi hamda tahliliylik darajasi va mavjud muammolarning samarali yechimlarini taklif etishiga ko'p darajada bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, «Zamonaviy axborot maydonidagi harakat shunchalar tig'iz, shunchalar tezkorki, endi ilgarigidek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo o'tirib bo'lmaydi. Mana shu shart-sharoitlarning barchasi ham ma'naviyat, milliy

mafkuraning axamiyatini yanada kuchaytiradi. ... bugungi kunda g'oyani, fikrni taqiq bilan, ma'muriy choralar bilan yengib bulmaydi, g'oyaga karshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin».

Demak, internet orqali amalga oshiriladigan, katta mablag' talab qilmaydigan g'oyaviy ta'sir va tazyiqning o'ziga xosligi shundaki, u o'kuvchi, tinglovchi yoki tomoshabinga sezdirilmasdan amalga oshiriladi va bevosita qurbonlarnikeltirib chikarmaydi. Axborot urushi dushmanni yo'q qilmagan holda, yuqori samara beradi.

Bunda g'oyaviy ta'sir yo'naltirilgan mamlakatlar aholisining xohish-istaklari, mentaliteti, mavjud muammolari jiddiy o'rganilgan holda, asosiy diqqat kishilar ongi va dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatishga, shakllangan qadriyatlarni o'zgartirishga, ularning regulyatorlik rolini kamaytirishga yoki butunlay yo'qqa chiqarishga qaratiladi.

Internet rivoji hozirgi davrdagi g'oyaviy kurashga o'ziga xoslik bag'ishlamoqda. Bu ma'lumotlar oqimi manfaatdorlik nuqtai nazaridan yetkazilishida yoki ataylab qarama-karshi xarakterdagi ma'lumotlarni poyma-poy berish orqali oxir-oqibatda odamlar idrokini susaytirishga intilishda yorqin namoyon bo'ladi. Bu o'ziga xoslik jamiyat a'zolaridan tizimli ravishda axborotning muayyan qatlamani yashirish, ularni muhokama ob'ektiga aylantirmaslikka intilishda ham yaqqol ko'rinadi.

Internet odamlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarzida, xulq-atvorlariga ta'sir ko'rsatishda katta imkoniyatlarga ega. Internetning bugungi kundagi rivoji g'oyaviy ta'sir o'tkazishning miqyosi va ko'lamining keskin darajada o'sishiga olib keladi. Internet inson ongi va qalbiga ta'sir ko'rsatishning shu darajada kutilmagan qudratli vositasi bulib chiqdiki, unda targ'ib qilinayotgan ma'lumotlarning afzalliklari yoki salbiy oqibatlarini birdaniga ajratib olish juda qiyin masalaga aylanib qoldi.

Internet bugungi axborot makonining muhim bo'g'iniga aylandi. Hozirda internetdan nafaqat komp'yuter tarmog'i, balki kosmik aloqa yo'ldoshlari, radiosignal, kabel televideniesi, telefon, uyali aloqa orqali ham foydalanish mumkin. Avallari fakatgina suzlashuv uchun ishlatilgan telefondan bugun internet, tovushli aloka va ma'lumotlar uzatish kabi turli qo'shimcha xizmatlardan foydalanish, videotelefoniya va hatto teleko'rsatuvlar ko'rish imkoni bor.

Internetning ta'sir kuchi beriladigan materiallarning tezkorligi, ko'tarilayotgan masalalarning dolzarbligi hamda tahliliylik darajasi va mavjud muammolarning samarali yechimlarini taklif etishiga ko'p darajada bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, «Zamonaviy axborot maydonidagi harakat shunchalar tig'iz, shunchalar tezkorki, endi ilgarigidek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo o'tirib bo'lmaydi. Mana shu shart-sharoitlarning barchasi ham ma'naviyat, milliy mafkuraning axamiyatini yanada kuchaytiradi. ... bugungi kunda g'oyani, fikrni taqiq bilan, ma'muriy choralar bilan yengib bulmaydi, g'oyaga karshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin».

Demak, internet orqali amalga oshiriladigan, katta mablag' talab qilmaydigan g'oyaviy ta'sir va tazyiqning o'ziga xosligi shundaki, u o'kuvchi, tinglovchi yoki

tomoshabinga sezdirilmasdan amalga oshiriladi va bevosita qurbonlarnikeltirib chikarmaydi. Axborot urushi dushmanni yo'q qilmagan holda, yuqori samara beradi.

Bunda g'oyaviy ta'sir yo'naltirilgan mamlakatlar aholisining xohish-istaklari, mentaliteti, mavjud muammolari jiddiy o'rganilgan holda, asosiy diqqat kishilar ongi va dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatishga, shakllangan qadriyatlarni o'zgartirishga, ularning regulyatorlik rolini kamaytirishga yoki butunlay yo'qqa chiqarishga qaratiladi.

Internet rivoji hozirgi davrdagi g'oyaviy kurashga o'ziga xoslik bag'ishlamoqda. Bu ma'lumotlar oqimi manfaatdorlik nuqtai nazaridan yetkazilishida yoki ataylab qarama-karshi xarakterdagi ma'lumotlarni poyma-poy berish orqali oxir-oqibatda odamlar idrokini susaytirishga intilishda yorqin namoyon bo'ladi. Bu o'ziga xoslik jamiyat a'zolaridan tizimli ravishda axborotning muayyan qatlamani yashirish, ularni muhokama ob'ektiga aylantirmaslikka intilishda ham yaqqol ko'rinadi.

Har kuni dunyoda millionlab voqealar sodir bo'ladi. Ammo internetda kishilar diqqatiga muayyan ijtimoiy-siyosiy kuchlar manfaatidan kelib chiqib e'tibor qaratgan masalalargina havola etiladi. Bu ularning hodisalarni yoritishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishini, muayyan ma'lumotlarni olish, talqin qilish, baholash va tarqatish orqali fuqarolarda tegishli fikr va xulosalar shakllanishiga xizmat qilishini ko'rsatadi. Bu internetning ijtimoiy fikrni kerak bo'lgan shaklga yo'naltira olishi, u bilan manipulyatsiya qila olishidan dalolat beradi. Mazkur jarayonda soxta, to'qib chiqarilgan axborotni haqiqat sifatida taqdim etish, voqelikni biryoqlama taqdim etish yoki buzib ko'rsatish, reallikni adekvat qabul qilishga yordam beradigan muhim, kerak elementlarni yashirishga alohida e'tibor berilishini ta'kidlash zarur.

Aholining xolis va haqqoniy axborotga ega bo'lishini ta'minlash, yurtdoshlarimizning ma'naviy saviyasi, bilim va dunyoqarashini oshirish, shu bilan birga, yosh avlodni vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga xurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma'lumotlarni global tarmoq orqali tarqatib borishini din sohasidagi tashkilotlar oldida turgan yana bir muhim vazifa sifatida qayd etish mumkin.

Respublikamizda qaror topgan tolerantlik muhitini afkor ommaga ob'ektiv ko'rsatib berish, e'tiqod erkinligi sohasida O'zbekistonda olib borilayotgan siyosatni keng targ'ib qilish, diniy ekstremistik oqimlar tomonidan targ'ib qilinayotgan aqidaviy da'volarga manbalarga asoslangan ilmiy raddiyalar berish, ekstremizm va missionerlik g'oyalarining jamiyatga taxdidi, mutaassib g'oyalar zamiridagi g'arazli geosiyosiy maqsadlar, islomni buzib talqin qilayotgan mutaassiblarning kirdikorlarini fosh etishga qaratilgan maqolalar O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining veb sahifasiga tizimli joylashtirilib boriladi.

Bugungi axborot ham iste'mol qilinadigan tovarga aylangan ekan, har bir inson o'zida uni iste'mol qilish madaniyatini tarbiyalashi lozim. Yoshlar shaxsiy xarakterdagi axborot himoyasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, o'zi foydalanayotgan salbiy axborotlardan himoyalana olishi zarur. Ana shu maksadda O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi bakalavriat va magistratura «Dinshunoslik»

ta'lim yo'nalishida «Kibermakondagi diniy jarayonlar» hamda «Kibermakonda din omili» nomli maxsus kurslarning o'qitilishi joriy etilgan.

Axborot iste'moli madaniyati, eng umumiy ma'noda, axborot oqimidan inson manfaatlari, kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni qabul qilish, saralash, tushunish va talqin etishga xizmat qiladigan bilimlar, qobiliyati va malaka tizimini anglatadi.

Yosh avlodda bu jihatlar milliy manfaatga xizmat qiladigan, virtual makonda rivojlanishiga yordam beradigan axborotni tanlay oladigan darajada shakllantirilishi va qaror topishi kerak. Bu globallashuv jarayonida yoshlarning axborotga ko'r-ko'rona ergashishi, uni noto'g'ri talqin qilishining oldini olishning yagona yo'li. Axborotni iste'mol qilish madaniyatiga ega bo'lgan yoshlar salbiy va noxolis ma'lumotlarning ta'siriga tushmaydi, chunki ularda bunday ma'lumotlarga nisbatan kuchli mafkuraviy immunitet mavjud.

Har kuni dunyoda millionlab voqealar sodir bo'ladi. Ammo internetda kishilar diqqatiga muayyan ijtimoiy-siyosiy kuchlar manfaatidan kelib chiqib e'tibor qaratgan masalalargina havola etiladi. Bu ularning hodisalarni yoritishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishini, muayyan ma'lumotlarni olish, talqin qilish, baholash va tarqatish orqali fuqarolarda tegishli fikr va xulosalar shakllanishiga xizmat qilishini ko'rsatadi. Bu internetning ijtimoiy fikrni kerak bo'lgan shaklga yo'naltira olishi, u bilan manipulyatsiya qila olishidan dalolat beradi. Mazkur jarayonda soxta, to'qib chiqarilgan axborotni haqiqat sifatida taqdim etish, voqelikni biryoqlama taqdim etish yoki buzib ko'rsatish, reallikni adekvat qabul qilishga yordam beradigan muhim, kerak elementlarni yashirishga alohida e'tibor berilishini ta'kidlash zarur.

Aholining xolis va haqqoniy axborotga ega bo'lishini ta'minlash, yurtdoshlarimizning ma'naviy saviyasi, bilim va dunyoqarashini oshirish, shu bilan birga, yosh avlodni vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga xurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma'lumotlarni global tarmoq orqali tarqatib borishini din sohasidagi tashkilotlar oldida turgan yana bir muhim vazifa sifatida qayd etish mumkin.

Respublikamizda qaror topgan tolerantlik muhitini afkor ommaga ob'ektiv ko'rsatib berish, e'tiqod erkinligi sohasida O'zbekistonda olib borilayotgan siyosatni keng targ'ib qilish, diniy ekstremistik oqimlar tomonidan targ'ib qilinayotgan aqidaviy da'volarga manbalarga asoslangan ilmiy raddiyalar berish, ekstremizm va missionerlik g'oyalarining jamiyatga taxdidi, mutaassib g'oyalar zamiridagi g'arazli geosiyosiy maqsadlar, islomni buzib talqin qilayotgan mutaassiblarning kirdikorlarini fosh etishga qaratilgan maqolalar O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining vebsahifasiga tizimli joylashtirilib boriladi.

Bugungi axborot ham iste'mol qilinadigan tovarga aylangan ekan, har bir inson o'zida uni iste'mol qilish madaniyatini tarbiyalashi lozim. Yoshlar shaxsiy xarakterdagi axborot himoyasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, o'zi foydalanayotgan salbiy axborotlardan himoyalana olishi zarur. Ana shu maksadda O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi bakalavriat va magistratura «Dinshunoslik» ta'lim yo'nalishida «Kibermakondagi diniy jarayonlar» hamda «Kibermakonda din omili» nomli maxsus kurslarning o'qitilishi joriy etilgan.

Axborot iste'moli madaniyati, eng umumiy ma'noda, axborot oqimidan inson manfaatlari, kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni qabul qilish, saralash, tushunish va talqin etishga xizmat qiladigan bilimlar, qobiliyati va malaka tizimini anglatadi.

Yosh avlodda bu jihatlar milliy manfaatga xizmat qiladigan, virtual makonda rivojlanishiga yordam beradigan axborotni tanlay oladigan darajada shakllantirilishi va qaror topishi kerak. Bu globallashuv jarayonida yoshlarning axborotga ko'r-ko'rona ergashishi, uni noto'g'ri talqin qilishining oldini olishning yagona yo'li. Axborotni iste'mol qilish madaniyatiga ega bo'lgan yoshlar salbiy va noxolis ma'lumotlarning ta'siriga tushmaydi, chunki ularda bunday ma'lumotlarga nisbatan kuchli mafkuraviy immunitet mavjud.

«Kimki axborotga ega bo'lsa, u dunyoga egalik qiladi», degan fikr bugungi kunda barcha tomonidan e'tirof etilgan. Shunday ekan, bugungi kunda yoshlarda axborot olami imkoniyatlaridan oqilona foydalanish malakasini shakllantirish hayotiy-amaliy ahamiyatga ega.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni yanada rivojlantirish kelgusida jamiyatimiz oldida turgan muhim va ustuvor vazifalardan ekanini ta'kidlash zarur:

- axborot muhitida yoshlarning ijtimoiy ongini monitoring qilish tizimini shakllantirish;

- o'sib kelayotgan avlodning mediasavodxonligini muntazam oshirib borish;

- yoshlarning virtual axborot sohasidagi barqaror qarashlari va qiziqishlarini muntazam o'rganish;

aholini kelajak avlodning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga zarar etkazuvchi axborotdan himoya qilish;

- yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan “ommaviy madaniyat” tahdidi va yot oqimlarning asl mohiyatini fosh etuvchi axborotni tarqatish tizimini yo'lga qo'yish.

Ma'lumki, odamzod ishonchga, e'tiqodga tayanib yashaydi. Binobarin, uning e'tiqodi ham o'zi kabi hurmatga, e'zozga loyikdir. Ongu tafakkurga tahdiddek vijdotsizlik, sof e'tiqodli kishilar kalbiga tajovuz qilishni ko'zlagan kimsalarning internet orqali tarqatayotgan fikrlari soxtalikka, yuzakilikka va g'arazli manfaatga asoslanganki, shu bois bunday xatti-harakatni hech qanday yo'l bilan oqlab bo'lmaydi.

Diniy mutassiblik, ekstremizmning mafkurasi aksil ijtimoiy xayolotdan boshqa narsa emas. Bu mafkura butun dunyoni kuch bilan bosib olishga qaratilgan. Mutaassib murosasiz bo'lgani tufayli real voqelik bilan hisoblashmaydi. Uning butun fikri hozirgi bosqichda jamiki «noislomiy» narsalarni qo'porib tashlab, istiqbolda qandaydir «haqiqiy» musulmon jamiyati tuzish g'oyasi bilan band. Hozirgi kunda mutaassib ko'rinishdagi oqimlar va terrorchi kuchlar tomonidan g'arazli maksadlarda talqin etilayotgan buzg'unchi g'oyalar ta'sirida sodir etilayotgan qonli to'qnashuvlar, nizolar davlatlar taraqqiyoti hamda iqtisodiy o'sishini bir necha yillarga orqaga surib yubormoqda. Bunday mafkuraviy tahdidlar, avvalo xalqning boy ma'naviyatiga qarshi karatilgan bo'lib, uning jamiyatda ildiz otishiga qarshi o'z

vaqtida choralar ko'rilmasa, o'ta salbiy oqibatlariga olib kelishi dunyo tajribasidan sinolmakda.

Demak, aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini shakllantirish, yoshlar hamda ayollar ichida diniy mutaassiblikning tarqalishi, missioner va aqidaparast oqimlar ta'siriga tushib qolishning oldini olish, «ommaviy madaniyat» kabi illatlarga qarshi kurashish hozirgi kunda ham hamon dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda. Bunda voyaga yetayotgan yosh avlodni mustaqil fikrli, yurt tinchligi va xalq farovonligiga o'z hissasini qo'shadigan, xalqi va Vataniga sodiq, ma'naviyati yuksak inson qilib tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Xalqimizning ma'naviyat va ma'rifat soxasidagi bilimlarini oshirish, ajdodlarimizning boy diniy, ilmiy-nazariy merosini har tomonlama o'rganish, ularga oid mavjud manbalarni ilmiy-ommabop tarzda tahlil etish, shuningdek, aholi tafakkurini mafkuramizga yot g'oyalar ta'siridan saqlash, ular ongida ekstremizm, mutaassiblik va terrorizmning salbiy okibatlari haqida atroflicha bilim va ko'nikmalar hosil qilish ushbu hassos va murakkab sohaning vakillari bo'lgan olimu tadqiqotchilar zimmasida alohida mas'uliyat yuklaydi.

Bunda eng avvalo g'arazli maqsadda amalga oshirilayotgan tashqi g'oyaviy ta'sirlar, mamlakatimizda sodir bo'layotgan uzgarishlarga go'yo xolis yondashuv bayrog'i ostida berilayotgan bir yoklama axborotlar va baholarning oldini olish, ularga qarshi ob'ektiv ma'lumotlarni kishilarga tezkor, tizimli va tadrijiy yetkazib berish masalasi dolzarb bo'lib to'ribdi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida ta'kidlaganlaridek: «Tobora kuchayib borayotgan bunday xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashashimiz zarur. Bunday tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o'ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma'naviy tarbiya bilan javob berish mumkin».

Shunday ekan, g'oyalar kurashi avj olgan XXI asrda har xil shaklu shamoyildagi mutaassiblikka yo'g'rilgan buzg'unchi urinishlarga qarshi hayotimizda sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar haqidagi chuqur tahliliy ma'lumotlarni muntazam berib borish, fuqarolarimizning ijtimoiy faolligini kuchaytirish, bunda «fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish» har kachongidan ham ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bugungi murakkab davrda tinchlik va barqarorlikning insoniyat uchun qanchalik qadrli ekanini teran anglashimiz zarur. Din bayrog'i ostida jamiyatga har tomonlama zarar yetkazuvchi talonchilik va bosqinchilik, terrorchilik va qo'poruvchilik xatti-harakatlarini amalga oshirayotganlar ijtimoiy barqarorlikni buzish, millatlararo va dinlararo munosabatlarni shakllantirish uchun zamin yaratadi. adovat, millatchilik va diniy farqlar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ayrim hududlardagi notinchliklar, qo'shni davlatlarda hukm surayotgan beqarorlik mamlakatimizda barqaror taraqqiyotga erishish, tinch va farovon hayotni ta'minlash o'z-o'zidan bo'lmasligini anglash, shukronalik tuyg'usini uyg'otadi. farovon hayot qurishda tinchlikni qadrlash.

«Kimki axborotga ega bo'lsa, u dunyoga egalik qiladi», degan fikr bugungi kunda barcha tomonidan e'tirof etilgan. Shunday ekan, bugungi kunda yoshlarda



axborot olami imkoniyatlaridan oqilona foydalanish malakasini shakllantirish hayotiy-amaliy ahamiyatga ega.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni yanada rivojlantirish kelgusida jamiyatimiz oldida turgan muhim va ustuvor vazifalardan ekanini ta'kidlash zarur:

- axborot muhitida yoshlarning ijtimoiy ongini monitoring qilish tizimini shakllantirish;

- o'sib kelayotgan avlodning mediasavodxonligini muntazam oshirib borish;

- yoshlarning virtual axborot sohasidagi barqaror qarashlari va qiziqishlarini muntazam o'rganish;

aholini kelajak avlodning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga zarar etkazuvchi axborotdan himoya qilish;

- yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan "ommaviy madaniyat" tahdidi va yot oqimlarning asl mohiyatini fosh etuvchi axborotni tarqatish tizimini yo'lga qo'yish.

Ma'lumki, odamzod ishonchga, e'tiqodga tayanib yashaydi. Binobarin, uning e'tiqodi ham o'zi kabi hurmatga, e'zozga loyikdir. Ongu tafakkurga tahdiddek vijdotsizlik, sof e'tiqodli kishilar kalbiga tajovuz qilishni ko'zlagan kimsalarning internet orqali tarqatayotgan fikrlari soxtalikka, yuzakilikka va g'arazli manfaatga asoslanganki, shu bois bunday xatti-harakatni hech qanday yo'l bilan oqlab bo'lmaydi.

Diniy mutassiblik, ekstremizmning mafkurasi aksil ijtimoiy xayolotdan boshqa narsa emas. Bu mafkura butun dunyoni kuch bilan bosib olishga qaratilgan. Mutaassib murosasiz bo'lgani tufayli real voqelik bilan hisoblashmaydi. Uning butun fikri hozirgi bosqichda jamiki «noislomiy» narsalarni qo'porib tashlab, istiqbolda qandaydir «haqiqiy» musulmon jamiyati tuzish g'oyasi bilan band. Hozirgi kunda mutaassib ko'rinishdagi oqimlar va terrorchi kuchlar tomonidan g'arazli maksadlarda talqin etilayotgan buzg'unchi g'oyalar ta'sirida sodir etilayotgan qonli to'qnashuvlar, nizolar davlatlar tarqqiyoti hamda iqtisodiy o'sishini bir necha yillarga orqaga surib yubormoqda. Bunday mafkuraviy tahdidlar, avvalo xalqning boy ma'naviyatiga qarshi karatilgan bo'lib, uning jamiyatda ildiz otishiga qarshi o'z vaqtida choralar ko'rilmasa, o'ta salbiy oqibatlariga olib kelishi dunyo tajribasidan sinolmakda.

Demak, aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini shakllantirish, yoshlar hamda ayollar ichida diniy mutaassiblikning tarqalishi, missioner va aqidaparast oqimlar ta'siriga tushib qolishning oldini olish, «ommaviy madaniyat» kabi illatlarga qarshi kurashish hozirgi kunda ham hamon dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda. Bunda voyaga yetayotgan yosh avlodni mustaqil fikrli, yurt tinchligi va xalq farovonligiga o'z hissasini qo'shadigan, xalqi va Vataniga sodiq, ma'naviyati yuksak inson qilib tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Xalqimizning ma'naviyat va ma'rifat soxasidagi bilimlarini oshirish, ajdodlarimizning boy diniy, ilmiy-nazariy merosini har tomonlama o'rganish, ularga oid mavjud manbalarni ilmiy-ommabop tarzda tahlil etish, shuningdek, aholi tafakkurini mafkuramizga yot g'oyalar ta'siridan saqlash, ular ongida ekstremizm, mutaassiblik va terrorizmning salbiy okibatlari haqida atroflicha bilim va

ko'nikmalar hosil qilish ushbu hassos va murakkab sohaning vakillari bo'lgan olimu tadqiqotchilar zimmasida alohida mas'uliyat yuklaydi.

Bunda eng avvalo g'arazli maqsadda amalga oshirilayotgan tashqi g'oyaviy ta'sirlar, mamlakatimizda sodir bo'layotgan uzgarishlarga go'yo xolis yondashuv bayrog'i ostida berilayotgan bir yoklama axborotlar va baholarning oldini olish, ularga qarshi ob'ektiv ma'lumotlarni kishilarga tezkor, tizimli va tadrijiy yetkazib berish masalasi dolzarb bo'lib to'ribdi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida ta'kidlaganlaridek: «Tobora kuchayib borayotgan bunday xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashashimiz zarur. Bunday tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o'ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma'naviy tarbiya bilan javob berish mumkin».

Shunday ekan, g'oyalar kurashi avj olgan XXI asrda har xil shaklu shamoyildagi mutaassiblikka yo'g'rilgan buzg'unchi urinishlarga qarshi hayotimizda sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar haqidagi chuqur tahliliy ma'lumotlarni muntazam berib borish, fuqarolarimizning ijtimoiy faolligini kuchaytirish, bunda «fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish» har kachongidan ham ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bugungi murakkab davrda tinchlik va barqarorlikning insoniyat uchun qanchalik qadrlı ekanini teran anglashimiz zarur. Din bayrog'i ostida jamiyatga har tomonlama zarar yetkazuvchi talonchilik va bosqinchilik, terrorchilik va qo'poruvchilik xatti-harakatlarini amalga oshirayotganlar ijtimoiy barqarorlikni buzish, millatlararo va dinlararo munosabatlarni shakllantirish uchun zamin yaratadi. adovat, millatchilik va diniy farqlar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ayrim hududlardagi notinchliklar, qo'shni davlatlarda hukm surayotgan beqarorlik mamlakatimizda barqaror taraqqiyotga erishish, tinch va farovon hayotni ta'minlash o'z-o'zidan bo'lmasligini anglash, shukronalik tuyg'usini uyg'otadi. farovon hayot qurishda tinchlikni qadrlash.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish. 2019.  
<https://strategy.uz/files/news/45467/uzb.pdf>
2. Markaziy Osiyoda mushtarak jihatlar, tahdidlar va yangi imkoniyatlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti. 16.02.2019. <http://uza.uz/oz/society/markaziy-osiya-mushtarak-zhi-atlar-ta-didlar-va-yangi-imko-15-02-2019>
3. Markaziy Osiyo: umumiy kelajak uchun mas'uliyat. 14 Noyabr 2017.  
<https://old.xs.uz/index.php/homepage/sijosat/item/11958-markazij-osiyo-umumij-kelazhak-uchun-mas-uliyat>
4. Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvi. 16 Mart, 2018. <https://www.uzavtoyul.uz/cy/>
5. Mirzieev Sh. M. [Action Strategy of the Republic of Uzbekistan for 2017-2021] Strategiyadeystviy Respubliki Uzbekistan na 2017–2021 godi. Tashkent, 2017. // Narodnoeslovo. 7 iyunya 2017 g.

6. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosatni amalga oshirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar. 17 Avgust 2020 y. "Taraqqiyot strategiyasi" markazi. <https://strategy.uz/index.php?news=1041&lang=uz2>

7. Tadjikistan prodoljacet izuchati vozmojnie effekti ot prisoedineniya respubliki k YeAES. [Tadjikistan continues to study the possible effects of the republic's accession to the EAEU]14.01.2015г.<http://ca-news.org/news:1137408>

## **QARAMAL JUNXORLARI** (Ádebiyat maǵlıwmatları analizi )

**Gaypnazarov S., F.S.Pulotov**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

**Annotaciya:** Bul maqalada bugingi kunda qaramallar arasında en' ko'p ushrasatug'in ha'm sharwashılıq xojalıqlarına u'lken ekonomikalıq ziyani jetkizetug'in junxor ektoparazitler haqqında ilimiy a'debiyat maǵlıwmatları bayan etilgen.

**Summary:** This article describes the data of scientific literature about the bovicola ectoparasites, which are the most common among cattle today and cause great economic damage to livestock farms.

**Gilt so'zler:** Bovikola, giperkeratoz, intensiv, imago, lishinka, immigraciya, junxor, ekstensiv, ektoparazit, endoparazit.

**Kirisiw.** Song'ı jıllarda sharwashılıqtı da'ri-darmanlar, insektecidler ha'm basqa preparatlar menen ta'miyinleniwning qıyınlasıwı, haywanlar migraciyasının asıwı, sharwashılıq imaratlarındag'ı sanitariya jag'dayının jamanlasıwı sebepli qaramallar arasında ektoparazitlerdin' a'sirese junxorlardın' ju'da' tez ko'beyiwleri kuzetilip atır. Bul bolsa sharwa mallarının' o'nimdarlıg'ın asırıw ha'mde xalıqtı sapalı ha'm ekologiyalıq taza sharwa o'nimlerine bolg'an talabın qandıırıw siyaqlı juda u'lken mashqalalarg'a sheshim tabıwda qıyınshılıq tuwdırıp atır.

Junxorlar qaramallar arasında en' ko'p tarqalg'an ektoparazit bolıp, qaramallarda ku'shli tınıshsızlanıwdı shaqıradı, ju'nleri tusedi, terisi dermatit ha'm giperkeratozg'a ushraydı, ishteyi to'menleydi, na'tiyjede jas mallar o'siw ha'm rawajlanıwdan artta qaladı, sawın sıyırlardıń sut o'nimdarlıg'ı 30-50 payızg'a azayadı, ayırım waqıtları ulıwma su't beriwden toqtaydı. Budan tısqarı olar ko'pshilik yag'nıy viruslı, bakterial, zamarıqlı ha'm gelmintoz kesellik qozg'atıwshılarının' tasıwshıları bolıp esaplanadı, ayırım dereklerde adam organizmine o'tib jasay alıwı da dizimge alıng'an.

Ha'zirgi waqıtta, Qaraqalpag'ıstan Respublikası sharayatında qaramallar arasında junxorlardın' tarqalıwın, faunası, biologiyasını uyreniw, zamanago'y emlew usulların islep shıg'ıw ahmiyetli ilimiy-a'meliy mashqala bolıp esaplanadı.